

**ELEKTRON GAZETA TILINING AKSIOLOGIK-MENTAL
TADQIQI**

Teshabaeva Difuza,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

filologiya fanlari doktori, professor

dilfuzateshabaeva@gmail.com

Mamaraimova Ug'ilo

TerDU, mustaqil tadqiqotchisi

mamaraimova2022@gmail.com

Annotasiya: Mentallik nazariyasi ijtimoiy ongning shakllanish mexanizmini tahlil qilish va turli madaniyatlarning o'zaro harakatda bo'lishi va o'zaro tushunishlarini tadqiqot qilish imkonini berdi. Bu tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro harakatda bo'lishi va bir biriga o'tib, singib ketishiga tayanadigan yangi tadqiqotlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu maqolada bosma elektron OAV tilida mentallikning voqealanishi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: gazeta, media tili, mentallik, aksiologiya, qadriyatlar, fenomen, elektron OAV

**АКСИОЛОГИЧЕСКО-МЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЯЗЫКА
ЭЛЕКТРОННЫХ ГАЗЕТ**

Тешабаева Дильфуза,

доктор филологических наук, профессор Узбекского

государственного университета мировых языков

dilfuzateshabaeva@gmail.com

Мамараймова Угил

Независимый научный сотрудник Термезского государственного
университета

mamaraimova2022@gmail.com

Аннотация: Теория ментальности позволила проанализировать механизм формирования общественного сознания, изучить взаимодействие и взаимопонимание разных культур. Это привело к появлению новых исследований в лингвистике, которые опираются на взаимодействие между языком и культурой, а также на взаимодействие и поглощение друг друга. В данной статье анализируется феномен ментальности на языке печатных электронных СМИ.

Ключевые слова: газета, язык СМИ, менталитет, аксиология, ценности, феномен, электронные СМИ

AXIOLOGICAL-MENTAL STUDY OF THE LANGUAGE OF ELECTRONIC NEWSPAPERS

Teshabaeva Dilfuza,

Doctor of philological sciences, professor of Uzbekistan State University of World
Languages

dilfuzateshabaeva@gmail.com

Mamaraimova Ughiloy

Independent researcher of Termez State University

mamaraimova2022@gmail.com

Abstract: The theory of mentality made it possible to analyze the mechanism of the formation of social consciousness, to study the interaction and mutual understanding of different cultures. This has led to new research in linguistics that draws on the interaction between language and culture, as well as on the interaction and absorption of each other. This article analyzes the phenomenon of mentality in the language of printed electronic media.

Key words: newspaper, media language, mentality, axiology, values, phenomenon, electronic media

Kirish

Ommaviy axborotning nufuzi, avvalambor, uning keng xalq ommasiga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bunda auditoriyaning o‘zi ham OAV xodimlarining professional bilim va malakaga ega bo‘lishini taqazo etadi. Hozirgi vaqtda jamiyat son-sanoqsiz OAV orqali yangiliklardan tezda voqif bo‘lishdek katta va tezkor imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Axborot qanday tarzda qabul qilinmasin, u, baribir, til vositalari orqali o‘z ifodasini topadi.

Til virtual tuzilma sifatida mazkur til sohiblarining muayyan hamjamiyat jamoaviy ongi bilan belgilangan(asoslangan) nutqiy xulqidagi salohiyatli imkoniyatlarni amalga oshiradi. So‘nggi yillarda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, turli madaniyatlarning o‘zaro munosabatlari masalasiga bo‘lgan qiziqish tobora ortayotgani yaqqol ko‘rinib qoldi. Biroq madaniyat – o‘ta keng tushuncha. U til va fikrlash, qabul qilish, baholash va munosabat kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Agar, “Mentalitet bu –jamiyatning etnik va madaniy o‘ziga xosligidir”, degan qoidani qabul qiladigan bo‘lsak [1, 278], u holda mentalitet tushunchasining o‘zi muayyan xalq mentalitetining milliy o‘ziga xosligini aniqlash uchun amaliy maqsadlarda chuqur ilmiy o‘rganish mavzusiga

aylanishi kerak. Aynan shu boisdan milliy mentalitetni OAV tili misolida ko'rib chiqish o'rinlidir.

Adabiyotlar tahlili

OAVda milliy xarakterning aks etishi nuqtai nazaridan media tilni o'rganishga yondashish etnik mentalitetni, etnik jihatdan o'ziga xoslikni milliy dunyoqarash va o'z o'zini anglab yetishda ob'ektiv, tarixiy to'plab tuzilayotgan madaniy dunyoqarash fenomeni sifatida anglab yetishda mahsuldor biror narsani taklif qilishga qodirdir. Mazkur madaniy dunyoqarash fenomeni barcha e'tiborga loyiq narsalarni aks ettiradi. Shunday ekan, jurnalistika ma'lumotlarning mental va etnik tasniflarini oydinlashtirish uchun media matnlarning kognitiv va madaniyatchilik imkoniyatlari ifodalanishini tadqiqot qilish zaruriyati paydo bo'ladi.

XX - asrning ikkinchi yarmida tilda voqelikni tahlil qilishning aksiologik yondashuvi keyingi ijtimoiy-madaniy va siyosiy o'zgarishlarning bz berishi sintez qiluvchi xususiyatga ega bo'lgan yangi tadqiqot paradigmalarini shakllanishiga sabab bo'li. Ushbu paradigmalarda "qadriyat" tushunchasi dunyoni tushunish va shaxsiy mohiyatni ifodalash usuli sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, xalqning mental tasavvurlari asrlar va ming yillar davomida sayqallanib, jamoaviy tajribaga aylanadi, va ular faqat etnik borliq va etnik tarix singari uzluksiz va uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan tildagina saqlanib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, etnik mentalitet, xalqning madaniy-tarixiy, madaniy-psixologik o'zligi haqida so'z yuritilganda ko'zda tutiladigan anglab yetish yo'llarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan rol' tilga tegishlidir. Tilda dunyoning konseptual tasviri shakllanadi, insonni esa «biz ma'lum bir mentallikning namoyondasi sifatida tushunamiz» [2, 113].

«So'zning, hamda tushunchaning ma'nosi borliqni spesifik shaklda aks ettirilishda, ya'ni umumlashtirish va mavxumlikda mujassamlashtirilgan. So'z va tushunchalar asosida doim umulashtirish yotadi, ya'ni mavjudlikdagi ko'rinishlarning rang-barangligi va cheksiz o'zgaruvchanligida yashiringan doimiylik va barqarorlik, o'sha umumlikni aks ettiradi» [3, 278]. Mentallikni

tilshunoslik kategoriyasi sifatida maqomini (statusini) aniqlash masalasi hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda eng ahamiyatli va istiqbolli bo'lgan dunyoni kategoriyalashtirish muammosi bilan bog'liqdir. Bu jarayon aytarli darajada kognitiv sifatida chiqib, inson ongining asosiy funksiyalaridan biri bo'lib keladi.

XX - asrning ikkinchi yarmida tilda voqelikni tahlil qilishning aksiologik yondashuvi keyingi ijtimoiy-madaniy va siyosiy o'zgarishlarning bz berishi sintez qiluvchi xususiyatga ega bo'lgan yangi tadqiqot paradigmatlarini shakllanishiga sabab bo'li. Ushbu paradigmatlarda “qadriyat” tushunchasi dunyoni tushunish va shaxsiy mohiyatni ifodalash usuli sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bunday talqinlar bir-biriga zid emas va jurnalistika aksiologiyasini tushunishda kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmaydi, balki bu tushunchani har tomonlama, birlashtiruvchi va to'liq tushunishga urinishdir. Ular uni jurnalistikada va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlarda qo'llash mumkin bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oladi, turli davrlarda yozilgan jurnalistikaning qadriyat tahliliga bag'ishlangan asarlarni tizimlashtiradi va birlashtiradi.

Mentalitet ijtimoiylashtirish jarayonida avloddan avlodga o'tib namoyish qilib kelinadi va aniq bir sharoitlarda odob-ahloq va boshqa ustivorliklar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va modellari haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar mentallikni bir xil, o'xshash xulq-atvorda ifodalanadigan dunyoni idrok qilish, dunyoni his qilish, dunyoni anglash usullarini ongsiz unifikasiyalash jarayonining natijasi bo'lgan guruhga oid fenomen deb hisoblashadi. Mentallik – jamoaviy ongning latent, chuqur, reflektlanmagan sohasidir [4, 125].

“Ommaviy axborot vositalari voqeligining o'zi “zamonaviy jurnalistikaning jamiyat va shaxsning ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'rni”ni yaxlit tushunishni hamda jurnalistika rivojining istiqbolli tendensiyalarini aniqlashni talab qiladigan, unda hukm surayotgan o'zboshimchalik muammosini kun tartibiga qo'yadi. Zero, tadqiqotchilar aksiologiya va mentalitet nisbati, milliy fikrlash paradigmasining etnik jamiyatning muayyan turmush tarzi bilan bog'liqligiga ko'proq e'tibor bermoqdalar. “Milliy til fikrlashning bazaviy omilidir, boshqacha

aytganda, ona tili uning egalariga tilga oid aniq odatlar vositasida fikrlarni bayon etishning muayyan usulidan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi” [5, 88].

Mentalitet milliy fikrlash tarzining madaniy jihatdan asoslangan ko‘rinishi hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda shunday odatlar, shunday til shakllariga duch kelamizki, ular bizni boshqa xalqlar tomonidan dunyoni o‘zgacha qabul qilish tarzi, boshqa millatlarga xos betakror xususiyatlarga ro‘baro‘ etadi. Ko‘pincha biz o‘z mental odatlarimizni boshqalarniki bilan solishtirganimizdagina boshqa millatlar bizdan farq qilishini sezib qolamiz. Darhaqiqat, har bir xalq muayyan geografik hududda yashaydi, iqlimi, landshafti va boshqa xususiyatlariga ko‘ra boshqa xalqlardan farq qiladi. Mana shu omillar birligi boshqalardan farqli dunyoqarashni shakllantiradi mentalitetni vujudga keltiradi. Til ham bu jarayonda ishtirok etadi bir tomondan, ta'sirga uchraydi, boshqa tomondan esa, odatiy muhitdan tashqarida sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan til reaksiyasini shakllantiradi.

Elektron ommaviy axborot vositalari va elektron gazeta ilovalari kabi yangi texnologiyalarning raqobatiga qaramay, bosma ommaviy axborot vositalari media sanoatida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Gazetaning o‘z qiymatini saqlab qolishi bilan birga elektron ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, internet) bilan kuchli raqobatda bo‘ladi. Gazeta bosma OAV sifatida qaralishining asosi “qog‘ozga siyoh bilan bosilgan matnlarni” taqdim etadi hamda auditoriga nafaqat verbal balki noverbal ma'lumotlarni (dizayn, rasmlar, turli lementlar) taqdim etadi. Gazetaning tashqi ko‘rinish va dizayni unga jozibali ko‘rinish beradi.

Zamonaviy axborot uzatish usuli yangidan yangi texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan. Shu sababli, bugungi kunda elektron ommaviy axborot vositalari tobora ommalashib bormoqda. Bosma ommaviy axborot vositalarining asosiy cheklovlari mavjudligi gazetalar o‘z egasini tezkorlik bilan yangiliklardan xabardor qilishga imkon bermas edi. Elektron ommaviy axborot vositalari hozirda o‘quvchiga efirda yaxshiroq yangiliklar va ma'lumotlarni taqdim eta boshladi. Bosma elektron vositalarining asosiy afzalligi shundaki, ular voqea

sodir bo'lgan joydan to'g'ridan-to'g'ri va ko'p kechiktirmasdan jonli tasvirni taqdim etish xususiyatiga egaligidadir.

Tahlillar va natijalar

Hozirgi kunda bosma elektron vositalari nutqning eng ta'sirchan va maqbul shakli, jamoatchilik fikri, qarashlari va kayfiyatlarini shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'layotganligi e'tirof etilmoqda. Til xulqi va o'zbek mentalitetining nisbati haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni ta'kidlash lozimki, OAVda kommunikativ jarayonlar va ularda ishlatiladigan til iboralarining xalq mentaliteti bilan bog'liqligini tadqiq qiladigan aksiologik tamoyillariga asoslanadi.

Mentallik (mental ma'nolar, obrazlar, baholashlar, assosiasiyalar) so'z, so'z birikmalari, paremiyalar yordamida namoyon bo'ladi. So'zning ifodali va reprezentasiyali imkoniyati, A.F. Losevning baholashiga ko'ra, quyidagicha belgilanadi: «So'z nafaqat tushunchalarni ifodalaydi, shu bilan birga har qanday obrazlarni, tasavvurlarni, har xil his-tuyg'ular va hissiyotlarni va hohlagan sub'ektdan tashqari bo'lgan predmetlikni ham ifodalaydi. Bundan tashqari, agar ma'no tushunchaga tenglashtirilsa, u holda til ortiqcha bo'lib qoladi, ya'ni u tushunchalar bilan oddiygina mavxum fikrlashga aylanib qoladi. Ammo tushuncha asosiy rol' o'ynaydigan maxsus ilmiy fanlardan tashqari biz, agar insonlarning o'zaro so'zlashini ko'zda tutadigan bo'lsak, boshqa asl mantiqiy tushunchalarni kamdan kam ishlatamiz» [6].

Ma'lumki, millat mentaliteti uning vakillari nutqida til vositalari, o'ziga xos usullaridan foydalanish orqali namoyon bo'ladi: Masalan, “Mehr ko'zda, muruvvat dilda, deydilar. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaning o'n yillik orzusi ushalishida amaliy yordam bergan mutasaddilar, yurtdoshlarimizdan xursand bo'ldik” ; “Ikki ne'mat borki, ko'pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. Ular — tinchlik-xotirjamlik va sihat salomatlikdir” .

OAV nutqiy tendensiyalarini milliy mentalitet orqali tahlil qilish paytida yana shu ham e'tirof etiladiki, o'zbekcha xulq stereotipi tilda nomaqbil so'zlar,

jargonlar va tabu soʻzlarning ishlatilishi ustidan qatʼiy nazoratni koʻzda tutadi. Bu oʻrinda kommunikativ xulq meʼyorlari xaqida soʻz yuritish maqsadga muvofiqdir.

Har bir madaniyat kishilar tomonidan toʻplangan koʻp yoki oz tajribaga ega. Millatning harakati va qabul etishi madaniy koʻnikmalari bilan izohlanadi. Shuni taʼkidlash lozimki, muloqotning milliy uslubini yaʼni fikrlash, qabul qilish, harakatning oʻziga xos keng tarqalgan, ishonarliroq xususiyatlarini hisobga olish lozim. OAVda tildan foydalanish jamoaning faoliyatida xulq va xatti-harakatlar birligini aks ettiradi.

Xulosa

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin: nutqiy xulqning oʻziga xos jihatlari milliy va madaniy jihatdan betakrordir. Muayyan jamiyatda tarixan shakllangan nutqiy xulqqa nisbatan qoʻyilgan talablar mana shu jamiyatning qadriyatlar sistemasini aks ettiradi. Unda xalqning madaniy, tarixiy anʼanalari va umummilliy tajribasi yaqqol namoyon boʻladi. Jurnalistning axborotni qayta ishlash, uni talqin etish hamda ifodalash mahorati milliy madaniyatning ham, umuminsoniy axboriy madaniyatning ham tarkibiy qismidir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Голованивская М. К. Французский менталитет с точки зрения носителя русского языка. – М.: Изд-во Моск. Гос.ун-та, 1997.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.
3. Кацнельсон С. Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М., 1965.
4. Начкебия Э. В. Ментальность как категория языка: к постановке проблемы. «Культурная жизнь Юга России». № 3 (32). 2009.
5. Седых А.П. Языковая личность и этнос (национально–культурные особенности коммуникативного поведения русских и французов). – М.: Компания Спутник+, 2004.
6. Лосев А. Ф. Знак. Символ. Миф. – М., 1982.

